


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



TABIIY GEOGRAFIYANING DOLZARB MUAMMOLARI

fanidan

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:

500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika

Ta'lim sohasi:

530000 – Fizika va tabiiy fanlar

Ta'lim yo'nalishi:

70530402 – Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha)

Termiz-2023

qishki

Fan/modul kodi TGMIM105	O'quv yili 2023-2024	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 5
Fan/modul turi Tanlov		Haftadagi dars soatlari 2-semestr 4 soat	
Ta'lim tili O'zbek			
Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Jami yuklama (soat)
1	Tabiiy geografiyaning dolzarb muammolari	60	90
<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda tabiiy geografiyaning dolzarb muammolari fanining ilmiy-nazariy va metodologik asoslari, amaliy ahamiyatiga doir bilimlarni yanada boyitish, fanining shakllanish va rivojlanishi, uning istiqbol va muammolarini aniqlash.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarga fanning asosiy nazariya va tushunchalari, ob'ekti va predmeti, shakllanishi, tarkibiy qismlari, tadqiqot usullari, tabiiy geografik jarayonlar ularning geografik tarqalish qonuniyatlari, hozirgi zamon tabiiy geografiya fanidagi ilmiy maktablar; respublika va jahon mamlakatlari yetakchi tabiiy geograf olimlarining asosiy g'oya va nazariyalarini bilish, amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. Tabiiy geografiyaning asosiy muammolari</p> <p>Tabiiy geografiyaning asosiy muammolari o'quv kursi obyekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. O'quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog'liqligi. Tabiiy geografik izlanishlarning tavsifi.</p>			
2			150

2-mavzu: Tabiiy geografiyadagi asosiy g'oya va tushunchalarning shakllanish va rivojlanish tarixi

Qadimgi (antik) davrlardagi yunon olimlari Gekatiy, Gerodot, Aristotel, Eratosfen, Gipparx, Posidoni, Strabon, Ptolemeylarning geografik tasavvurlari. O'rta asrlardagi sharq uyg'onish davri geografiyasi. O'rta Osiyolik allomalar Muhammad Xorazmiy, Jayhoni, Balxiy, Abu Abdulla Xorazmiy, Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Hofizi Abru, G'iyosiddin Naqqosh, Zahiriddin Bobur va boshqalarning geografik merosi.

Buyuk geografik kashfiyotlar davri va yevropaliklarning tasviriy geografiyasi. Bemxard Vareniusning "buyuk" geografiyasi (Umumiy geografiya asari).

XIX asrda yangi geografiyaning shakllanishi. I. Kant, A. Gumboldt, K. Ritterlarning geografik qarashlari.

V.V. Dokuchaev, A.N. Krasnov, G.T. Tanfilev, L.S. Berg, G.F. Morozov, A.A. Grigorevlarining yangi ilmiy geografiyaning shakllanishidagi roli.

XX asrning ikkinchi yarmida kompleks tabiiy geografiya va landshaftshunoslik g'oyalarining rivojlanishi. O'zbekistonda bajarilgan tabiiy geografik izlanishlarning tavsifi.

3-mavzu: Tabiiy geografiyaning fanlar tizimidagi o'rni va qismlari

Tabiiy geografiyaning obekti, predmeti va vazifalari. Geografik qobiq, geografik muhit, tabiiy geografik kompleks, landshaft, geografik tizim, tushunchalari va ta'limotlarining shakllanishi. Geotizimlarning uch darajasi: planetar, regional va topologik darajalari.

Tabiiy geografik komplekslarning ko'lamlari, katta-kichikligi va tabiiy geografiyaning qismlarga bo'linishi. Umumiy tabiiy geografiya, regional tabiiy geografiya, landshaftshunoslik.

4-mavzusu: Umumiy tabiiy geografiyaning asosiy muammolari

Geografik qobiqning chegaralari va tarkibiy tuzilishi. Uning geosferalari va komponentlari. Geografik qobiqning o'ziga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlari. Uning tarixan shakllangan, uzluksiz rivojlanib turadigan, o'ziga xos va murakkab moddiy tizim ekanligi. Geografik qobiqning tashqi olam bilan aloqadorligi. Unda organik hayotning mavjudligi. Geografik qobiqning mavjudligida tirik moddaning ahamiyati. Geografik qobiqdagi hududiy farqlarni aniqlash va muayyan hududlarning tabiiy sharoitini tadqiq qilish katta hududlar (regional) tabiiy geografiyasining eng muhim vazifalaridan biri ekanligi.

5-mavzu: Regional tabiiy geografiyaga taaluqli muammolar

Tabiiy geografik komplekslar va ularning umumiy xususiyatlari. Tabiiy geografik rayonlashirish regional tabiiy geografiyaning metodologik masalalaridan biri ekanligi.

Tabiiy geografik rayonlashirishning xillari, printsiplari va metodlari. Genetik birliklik, komplekslilik, hududiy umumiylik va nisbatan bir xillik printsiplari.

6-mavzu: Landshaftshunoslik yoki kichik hududlar tabiiy geografiyasining muammoli masalalari

Landshaft tushunchasining shakllanish va munozarali tomonlari. Landshaftning tarkibiy tuzilishi va morfologiyasi. Landshaft hosil qiluvchi omillar muammosi. Landshaft va ekosistema, landshaftshunoslik va ekologiyadagi o'xshashlik va farqlar. Landshaft ekologiyasi yoki geokologiya tushunchasi. Landshaftlarning maxsus faoliyati. Landshaftlarni tasniflash masalalari. Landshaftshunoslikdagi asosiy ilmiy yo'nalishlar: strukturaviy-genetik, funktsional-dinamik, antropogen, ekologik, estetik va boshqalar.

7-mavzu: Landshaftlarni tasniflash va amaliyot

Landshaftlarni tasniflashning mazmun mohiyati. Landshaftlarni tasniflash haqidagi fikrlar va g'oyalar. Landshaftlarni tasniflash borasidagi tadqiqotlar. Landshaftlarni tasniflashning amaliy ahamiyati.

8-mavzu: Inson-tabiat o'zaro aloqadorligi masalalari

Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning tabiiy geografik jihatlari. Tabiatdan oqilona foydalanishning global, regional va mahalliy ko'lamdagi muammolari. Tabiiy geografik monitoring va prognozlash. Tabiiy geografik baholash masalalari.

9-mavzu: Geografiya va ekologiya: muammo va amaliyot

Geografiya va ekologiya fanlari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlanishlar. Geokologiya (geografik ekologiya) g'oyalarning rivojlanishi. Geokologiya – integral umumigeografik fan. Geokologik tadqiqotlar bo'yicha ustuvor yo'nalishlar.

10-mavzu: O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasiga taaluqli muammoli masalalar.

Orol va Orolbo'yi muammosi va unga bog'liq bo'lgan ekologik masalalar. Antropogen cho'llanish muammolari. Iqlim o'zgarishiga bog'liq holda landshaftlarning taraqqiyot yo'nalishlarini aniqlash va prognozlash muammolari.

11-mavzu: Tabiiy geografiya va amaliyot

Tabiiy geografiyaning amaliy jihatlari. Amaliy (konstruktiv) geografiya. Tabiiy geografik va amaliy geografik rayonlashirish, geotizimlarning resurs, ekologik va barqarorlik imkoniyatlarini aniqlash va baholash masalalari. Tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilish

tadbirlarini amalga oshirishda geografik bilimlarning ahamiyati. Tabiiy resurslarni baholashda geografik qonuniyatlarga amal qilish lozimligi. Ekologik muammolarni bartaraf etish va tabiiy muhitni optimallashtirishda geografik bilimlarning ahamiyati.

12-mavzu: Tabiiy geografik fanlar nazariyasining asosiy muammolari.

Fanlarni tizimlash zarurati va uning tabiiy geografiyadagi yechimi. Tabiiy geografik fanlar tizimi. Geografiya va tabiiy geografik fanlar obyekt.

13-mavzu: Zamonaviy tabiiy geografik konsepsiyalar
Tabiiy geografik konsepsiyalar. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi. Barqaror rivojlanishning tabiiy geografik jihatlari.

14-mavzu: Tabiiy geografik rayonlashtirish masalalari
Tabiiy geografik rayonlashtirish obyekt, predmeti, maqsadi, jarayoni, toponimikasi. Tabiiy geografik rayonlashtirish mazmuni va mohiyati. Amaliy tabiiy geografik rayonlashtirish.

O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirishlar tajribalaridan R.I.Abolin, L.S.Berg, Ye.P.Korovin, A.N.Rozanov, V.M.Chetirkin, E.M.Murzayev, L.N.Babushkin va N.A.Kogaylarning tabiiy geografik rayonlashtirish ishlarida ko'tarilgan muammoli masalalar. Qishloq ho'jaligi va boshqa soha maqsadlarida bajariladigan tabiiy geografik rayonlashtirish masalalari.

15-mavzu: Tabiiy geografik fanlar istiqbollari
Tabiiy geografik tadqiqotlar metodologiyasi. Tabiiy geografik fanlarni rivojlantirishdagi ko'rsatkichlar. Tabiiy geografik fanlar istiqbollari. Tabiiy geografik ta'lim.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (list of seminar topics)

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tabiiy geografik g'oya va tushunchalarning shakllanishi va rivojlanishi.
 2. Tabiiy geografyaning fanlar tizimidagi o'rni va qismlari.
 3. Umumiy tabiiy geografiyaga oid muammolar.
 4. Regional tabiiy geografiyaga taaluqli muammolar.
 5. Xususiy rayonlashtirish.
 6. O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish tajribalari.
 7. Turli tabiiy geografik rayonlashtirish sxemalarini tahlil qilish.
 8. Kichik hududlar tabiiy geografiyasiga oid muammolar.
 9. Inson - tabiat munosabatlari va uning oqibatlari.
 10. Cho'llanish va sho'rlanish muammosi.
 11. Iqlimning o'zgarishi va uning tabiiy geografik oqibatlari.
 12. Tabiiy geografik monitoring.
 13. Tabiiy geografik baholash.
 14. Tabiiy geografik prognozlash.
 15. Tabiiy geografik komplekslarning modellari.
- Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jhozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR (Independent study and independent work)

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

<p>1. Amaliy mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish</p> <p>2. Tabiiy geografiyadagi asosiy g'oya va tushunchalarning shakllanishi va rivojlanish tarixi</p> <p>3. XX asrning ikkinchi yarmida kompleks tabiiy geografiya va landshaftshunoslik g'oyalarning rivojlanishi</p> <p>4. Geoekologik (geotizimli) monitoring</p> <p>5. Tabiiy geografik jarayonlar va ularning turlari</p> <p>6. Tabiiy geografik rayonlashirishning xillari</p> <p>7. Umumiy tabiiy geografiyaga oid muammolar</p> <p>8. Tabiiy geografiyada geoekologik tadqiqotlarni amalga oshirish muammolari</p> <p>9. Tabiatdan oqilona foydalanishning global, regional va mahalliy ko'lamdagi muammolari</p> <p>10. Tabiiy geografiyadagi asosiy g'oya va tushunchalarning shakllanishi va rivojlanish tarixi</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Learning Outcomes (Professional Competences)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:</p> <ul style="list-style-type: none"> • tabiiy geografianing dolzarb muammolari predmetining fanlar tizimida tutgan o'rni, tuzilishi, respublika va jahon mamlakatlari yetakchi tibbiy geograf olimlarining asosiy g'oya va nazariyalari haqida tasavvur va <i>bilinga ega bo'lishi</i>; • talaba tabiiy geografianing dolzarb muammolari fani va ta'limidagi asosiy muammolari, yer shari aholisi kasalliklari tasnifi, ularning geografik qonuniyatlarini, fanning ob'ekti va predmeti, shakllanishi, tarkibiy qismlari, asosiy termin va tushunchalari, tadqiqot usullarini, hamda tabiiy geografik jarayonlarning vujudga kelishi va rivojlanishining hududiy qonuniyatlarini
--	---

<p>tahlil qilish va xulosalar chiqarish; prognoz qilish bo'yicha <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>;</p> <ul style="list-style-type: none"> • talaba tabiiy geografik tadqiqotlarda rayonlashirish va prognozlashirish masalalarini tahlil qilish va kelajak istiqbollari bo'yicha xulosalar chiqara olish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>. 	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari (Educational technologies and): methods:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalalar. <p>4</p>
<p>5</p>	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar (Requirements for obtaining loans):</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
<p>6</p>	<p>VIII. Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Zokirov Sh.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. -T.:Turon zamin ziyo, 2016. 2. Nazarov I.Q. Geografiya fanining asosiy muammolari. T.: Muharrir. 2013. 212 bet. 3. Nig'matov A. Tabiiy geografik fanlarning nazariy muammolari. -T.:

Fan va texnologiya. 2010. 202 bet

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent.: "O'zbekiston" nashriyoti, -2022. -416 b.
 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
 6. Zokirov Sh. S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. –T.: Dizayn-press, 2013
 7. Зокиров Ш.С. Антропоген ва амалий ландшафтшunosлик. – Т. Университет. 1998.
 8. Исаченко А.Г. Ландшафтведение и физико-географическое районирование. – М. 1991
 9. Rafikov A.A., Sharipov Sh.M. Geokologiya. T.: "Adib", 2014.
 10. Мильков Ф.Н. Физическая география: современное состояние. Закономерности, проблемы. Воронеж, 1981
- Axborot manbalari**
11. <https://unilibrary.uz/>
 12. www.ziyouz.uz

7 Fan dasturi Termiz davlat universiteti Kengashining 2023 yil "26" avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan

Fan/modul uchun mas'ullar:

8 **Erdonov M.N** – TerDU "Geografiya" kafedrasi mudiri, g.f.n., dotsent.
Abdumo'minov B.O – TerDU "Geografiya" kafedrasi katta o'qituvchisi, g.f.f.d (PhD)

Taqrizchilar

9 **O'Yakubov** - TerDPI "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" kafedrasi mudiri., g.f.n., dotsent.
Q.Allanov – TerDU "Geografiya" kafedrasi dotsenti, g.f.n.